

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keying o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narhlarda 9 322,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 5,6 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga YaHM 3 371,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,5 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,2% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018 yil yanvar-iyunga nisbatan % da
	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun	
I. YaHM	7 287,9	9 322,0	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 080,5	8 903,7	105,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	207,4	418,3	108,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 080,5	8 903,7	105,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 948,4	3 478,2	103,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 415,3	1 937,4	113,0
Sanoat	965,2	1 340,3	109,2
Qurilish	450,1	597,1	121,1
Xizmatlar	2 716,8	3 488,1	104,3
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	615,5	723,1	103,4
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	491,1	539,3	106,3
Boshqa xizmat tarmoqlari	1 610,2	2 225,7	104,0

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,2 %, (YaHM tarkibidagi ulush – 39,1 %), sanoat – 109,2 % (15,1 %), qurilish – 121,1 % (6,7 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 103,4 % (8,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 106,3 % (6,1 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 104,0 % (24,9 %) ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,5 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar tarkibidagi ulushi 2,5 % punktga kamaydi va hisobot yilida 39,1 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,8 % punktga o'sdi va 21,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019 yil yanvar-iyun oylarida 39,1 % ni tashkil etdi va 2018 yil (38,4 %) bilan taqqoslanganda 0,7 % punktga o'sdi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda):**

2018 yil yanvar-iyun




2019 yil yanvar-iyun



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,1 % ni (2018 yil yanvar-iyun oylarida – 8,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa– 6,1 % ni (6,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 24,9 % ni (22,8 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(yanvar-iyun oylarida, jamiga nisbatan foizda)



Statistika faoliyatini tahsil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun ma'sul: A.Botirov.
Tel: 69-227-84-84